

G'aybullayev Shonazar Mirboboyevich
Buxoro davlat universiteti
sirtqi va masofaviy ta'lim bo'limi boshlig'i
shonazargaybullayev5@mail.com

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARINI INNOVATSION BOSHQARISHNI LOYIHALASH

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda ta'lim jarayonida zamonaviy metodik yondashuvlar, xususan fanlararo integratsiya va innovatsion texnologiyalarning, ayniqsa STEAM ta'lim modelining tatbiqi muhimligi tahlil qilinadi. STEAM modeli o'quvchilarning ilmiy bilimlarini chuqurlashtirish bilan birga, ularning ijodiy tafakkuri va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Loyihalash innovatsion faoliyatni boshqarish shakli sifatida ko'rib chiqilib, uning ilmiy-nazariy, tashkiliy-metodik va moliyaviy jihatlari o'rganiladi. Pedagogik tajriba va innovatsion faoliyat texnologiyasi sifatida loyihalash jarayoni, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida innovatsion boshqarishni tashkil etishning turli shakllari, jumladan pedagogik tajriba dasturlari va biznes-rejalar ta'riflanadi. Tadqiqotda innovatsion loyiha mazmuni, uning tashkil etilishi, ekspertizasi va samaradorligini oshirish yo'llari, shuningdek, ta'lim muassasalarida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning nazariy va amaliy asoslari batafsil ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar. Menejmentlik, STEAM, konsepsiya, integratsiya, zamonaviy ta'lim, rag'batlantirish, globallashtirish, jamoaviy, pedagog, tajriba, tadbir.

ПРОЕКТИРОВАНИЕ ИННОВАЦИОННОГО УПРАВЛЕНИЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ УЧРЕЖДЕНИЯМИ

Аннотация. В настоящем исследовании анализируется важность современных методических подходов в образовательном процессе, в частности междисциплинарной интеграции и внедрения инновационных технологий, в частности образовательной модели STEAM. Модель Steam служит для углубления научных знаний учащихся, а также для развития их творческого мышления и навыков самостоятельного принятия решений. Проектирование рассматривается как форма управления инновационной деятельностью, исследуются его научно-теоретические, организационно-методические и финансовые аспекты. Описывается процесс проектирования как технология педагогического опыта и инновационной деятельности, а также различные формы организации инновационного менеджмента в общеобразовательных учреждениях среднего профессионального образования, включая программы педагогического опыта и бизнес-планы. В исследовании подробно рассматривается содержание инновационного проекта, пути его организации, экспертизы и повышения эффективности, а также теоретические и практические основы организации предпринимательской деятельности в образовательных учреждениях.

Ключевые слова. Менеджмент, STEAM, концепция, интеграция, современное образование, стимулирование, глобализация, коллектив, педагог, опыт, мероприятие.

DESIGNING INNOVATIVE MANAGEMENT OF GENERAL SECONDARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation. This study analyzes the importance of modern methodological approaches in the educational process, in particular interdisciplinary integration and the application of innovative technologies, especially the STEAM educational model. The STEAM model serves to develop students' creative thinking and independent decision-making skills while deepening their academic knowledge. Design is considered as a form of management of innovative activities and

its scientific-theoretical, organizational-methodological and financial aspects are studied. As a technology of pedagogical experience and innovative activities, the design process is defined, as well as various forms of Organization of innovative management in general secondary educational institutions, including pedagogical pilot programs and business plans. The study examines in detail the content of the innovative project, its organization, examination and ways of improving its effectiveness, as well as the theoretical and practical foundations of the organization of entrepreneurial activity in educational institutions.

Keywords. Management, STEAM, concept, integration, modern education, encouragement, globalization, community, educator, Experience, event.

Adabiyot tahlili va metodologiyasi. Bugungi kunda ta'lim tizimini isloh qilishda samarali ishlar olib borilmoqda. Jumladan, jahonning yetakchi davlatlarida (Finlandiya, Singapur, Estoniya, AQSH, Yaponiya,...) olib borilayotgan tadqiqotlar uslub va metodlarni yurtimizga joriy etilishi ta'lim sifat va samaradorligini oshishiga innovatsion tashabbuslarni joriy etishga undamoqda. Bugungi ta'lim jarayonida fanlarni o'qitish metodikasi uzluksiz takomillashib innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, maktabda fanlarini o'qitishda o'quvchilarning faolligini oshirish, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, shuningdek, fanlararo integratsiyalashgan yondashuv asosida o'quv dasturlarini shakllantirish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi (Xolmatova S. "Ta'limda innovatsion metodlar", 2022). Xususan, STEAM ta'lim konsepsiyasi (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) hozirda xalqaro amaliyotda keng qo'llanilib, O'zbekiston ta'lim tizimida ham o'z o'rnini topmoqda. Turli ilmiy tadqiqotlarda (Tursunov A., 2021; Ismoilova D., 2023) qayd etilishicha, STEAM modeli o'quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, fanlararo uzviy bog'liqlikni kuchaytirish hamda kasb tanlashga yo'naltirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim jarayonining sifatini oshirish va o'quvchilarning bilim hamda ko'nikmalarini samarali rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar muhim rol o'ynaydi. Xususan, fanlarni o'qitish metodikasida fanlararo integratsiya va innovatsion texnologiyalarning keng qo'llanilishi o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Shu nuqtai nazardan, STEAM ta'lim modeli ta'lim sohasida innovatsiyalarni joriy qilishda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Ushbu model fanlararo bog'liqlikni ta'minlab, o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko'nikmalarini ham rivojlantirish imkonini yaratadi.

Loyihalash, ayniqsa, innovatsion faoliyatni boshqarish vositasi sifatida ta'lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Loyihalash jarayoni faqat tizimning boshlang'ich ko'rinishi emas, balki maqsadga yo'naltirilgan, o'zaro bog'liq va muvofiq tadbirlar majmuasi hisoblanadi. Bu esa innovatsion jarayonlarni ilmiy-nazariy, tashkiliy-metodik va moliyaviy jihatdan samarali tashkil etish imkonini beradi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida innovatsion boshqaruvni amalga oshirishda loyihalash ikki asosiy shaklda – pedagogik tajriba dasturi va biznes-reja orqali namoyon bo'ladi. Pedagogik tajriba o'qituvchilarning mahoratini oshirish va yangi g'oyalarni maktab amaliyotiga joriy qilishning samarali vositasi sifatida ko'riladi. Shu bilan birga, tadbirkorlik faoliyati uchun ishlab chiqiladigan biznes-rejalar ta'lim muassasasining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotda innovatsion faoliyatni loyihalash jarayonining nazariy asoslari, metodologiyasi hamda amaliy tavsiyalari o'rganilib, ta'lim muassasalarida pedagogik va iqtisodiy faoliyatni uyg'unlashtirish yo'llari tahlil qilinadi. Bu esa ta'lim tizimining sifatini oshirish va zamonaviy talablar darajasida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Muhokama va natija. Bugungi kunda ta'lim jarayonida fanlarni o'qitish metodikasiga zamonaviy yondashuvlar, xususan, fanlararo integratsiya va innovatsion texnologiyalarning tatbiq etilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, STEAM ta'lim modeli nafaqat ilmiy bilimlarni chuqurlashtirish, balki o'quvchilarning ijodiy tafakkurini, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish malakasini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Agar ushbu qisqartmani yoysak, *STEAM bu- S-science, T-technology, E-engineering, A-art va M-math.* Ingliz tilidan buning tarjimasi: *tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika.* Ushbu yo'nalishlar

zamonaviy dunyoda eng mashhur bo'lib kelayotganini unutmang. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta'limi yo'nalishi va amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona ta'lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan Mazkur modelda fanlar mavzular asosida bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, u o'quvchilarga o'z bilimlarini hayotiy holatlarda qo'llash imkonini yaratadi. Mavjud manbalarda loyihalash innovatsion faoliyatni maqsadli boshqarishni tashkillashtirish shakli sifatida e'tirof etiladi. Bunday yondashuvning asosi loyihani har qanday tizimning boshlang'ich holatidagi ko'rinishi deya qabul qilinishidan iborat.

Bizning fikrimizcha esa, loyihalash innovatsion faoliyatni maqsadli boshqarish shakli sifatida innovatsion maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan o'zaro bog'liq va bir-biriga muvofiq tadbirlarning muddati va ijrochilari bo'yicha murakkab tizimni ifodalaydi.

Loyihalash innovatsiyalarni amalga oshirish jarayoni sifatida esa faoliyatni ilmiy-nazariy, tashkiliy-metodik va moliyaviy jihatdan belgilangan tartibda izchil bajarilishini ifodalaydi.

Loyihalar, shuningdek, ahamiyatli hujjat ham sanaladi va ularda ta'lim maqsadlarini amalga oshirishning tashkiliy-rejaviy va moliyaviy xususiyatlari o'z aksini topadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini innovatsion boshqarishni loyihalashda loyiha quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

1) maktab faoliyatini boshqarish va pedagogik jarayonni rivojlantirish bilan bog'liq texnologiya hamda yangiliklarni o'zlashtirishni aks ettiruvchi pedagogik tajriba dasturi;

2) ta'lim muassasasining tadbirkorlik faoliyatini aks ettiruvchi biznes reja.

Qayd etilganidek, innovatsion loyiha pedagogik tajriba dasturi sifatida ham namoyon bo'ladi. Mavjud manbalarning aksariyatida innovatsion faoliyat tajriba-sinov deya tavsiflanadi. Bu o'rinda "tajriba" tushunchasi ko'proq "izlanish", "ilmiy izlanish", "ilmiy-metodik ishlar", "tajriba sinovi" kabi ma'nolarda qo'llaniladi.

Bizning fikrimizcha, ularning barchasi o'z mohiyatiga ko'ra yangi g'oyalarga asoslangan pedagogik tajribaning turli jihatlarini aks ettiradi. Zero, "maktabdagi metodik ishlar o'quv-tarbiya ishlarining sifat va samaradorligini oshiruvchi muhim vositalardan biri bo'lib hisoblanadi. Metodika ishlarining maqsadi o'qituvchi va tarbiyachilarning ma'naviy-siyosiy saviyasini va pedagogik mahoratini oshirib borishdir.

Shu bois tadqiqot muallif pedagogik tajribani yangi, ilg'or g'oyalarni asoslash va uni maktab amaliyotiga tadbir etish texnologiyasi deya e'tirof etish borasidagi taklifni ilgari suradi. Innovatsion faoliyat texnologiyasining pedagogik tajriba sifatida tan olinishi uning quyidagi shartlarga javob bera olishi bilan izohlanadi:

1. Pedagogik tajriba muammosining dolzarbligi, shuningdek, ta'lim muassasasining ehtiyojlari, ijtimoiy buyurtma hamda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga muvofiqligi.

2. Tajriba maqsadi, obyekti va predmetining puxta asoslanganligi (mazkur mezonlar tajriba muammosi mohiyatini to'la aks ettirishi, aniq, ravshan va tushunarli bo'lish lozim. Odatda tadqiqot maqsadi aniqlash, belgilab berish, shakllantirish, asoslash, yaratish, tuzish, ishlab chiqish, yaratish kabi fe'llar yordamida ifodalanadi). Maqsad tajriba predmetida o'z ifodasini topishi lozim.

Innovatsion faoliyat sifatida tajriba obyekt va predmetining to'g'ri belgilanishi sinovning ilmiy-metodik jihatdan samarali tashkil qilinishiga imkon beradi. M.M.Potashnikning qayd qilishicha, ta'lim muassasalarida tashkil etiluvchi tajriba obyekti pedagogik muhit bo'lib, uning doirasida sinovdan o'tkaziluvchilar, ya'ni respondentlar (pedagogik yoki o'quvchilar jamoasi, o'quv-tarbiyaviy jarayon, biron-bir fanning o'qitilishi metodikasi va boshqalar) joy oladilar.

Sinov predmeti – obyektning aniq qismi va unda yuz beradigan jarayon yoki muammo mazmuni, tashkiliy-texnologik unsurlari.

Tajriba predmeti tanlangan, tadqiq etilayotgan yoki o'rganilayotgan muammo bilan to'la mos kelishi lozim.

3. Tajribaning ilmiy farazi va pedagogik vazifalarining to'g'ri ifodalanganligi. Vazifalar asosiy maqsadga erishishga yo'naltirilgan o'zaro bog'langan alohida maqsadlar majmuidan iborat bo'lib, maqsadga erishishda hal qiluvchi muhim omil hisoblanadi.

Ilmiy farazlar batafsil asoslangan taxmin bo'lib, unda yangilik kiritish texnologiyasi mukammal bayon qilinadi va samarali metodlar yordamida pedagogik jarayonda yuqori natijalarni qo'ga kiritish nazarda tutiladi. Odatda, ilmiy farazlar ergash gapli qo'shma gap tarzida ifodalanib, "agarda ... bo'lsa, unda..." yoki "agar ..., u holda ..." shakldagi sxema tarzida ta'riflanadi.

4. Samarali bo'lgan metodlarning tanlanishi, tajribaning tashkil etilish muddati va bosqichlarini belgilash. Pedagogik tajribalarni olib borishda shakllangan an'anaga muvofiq tajriba metodlari shartli ravishda ikki guruhga bo'linadi:

1) muammoga oid falsafiy, pedagogik, psixologik va metodik

adabiyotlar, me'yoriy hamda ta'lim muassasasi hujjatlari, shuningdek, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, nazariy-qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatish, suhbat, savol-javob, intervyu, test, modellash tirish kabi metodlarni o'z ichiga olgan nazariy tahlil;

2) tajribaning muhim amaliy natijalarini qayta tahlil etish imkonini beruvchi matematik statistika.

Tajriba muddatlari uning boshlanishi va yakunlanishini ifodalaydi hamda maqsad va vazifalardan kelib chiqib belgilanadi. Sinov bosqichlarini ham to'g'ri belgilash muhim ahamiyatga ega bo'lib, belgilangan vazifalarning muayyan izchillikda va tartibli amalga oshirilishiga yordam beradi.

Tajriba bosqichlarida odatda quyidagilar ifodalanadi:

1) tajriba muammosini aniqlash;

2) tajribaning huquqiy ta'minoti, ya'ni uni tashkil etishga yo'naltirilgan qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plamining mavjudligi;

3) maqsad va ilmiy farazni ta'riflash, pedagogik vazifalarni aniqlash hamda samarali metodlarni tanlash asosida kutilayotgan natijalarni oldindan bashoratlash;

4) tashkiliy-pedagogik sharoitlarni hosil qilish, tajriba natijalarini qiyosiy tahlil qilish uchun tajriba va nazorat obyektlarini belgilash, kutilayotgan natijalarni baholash mezonlarini tanlash, pedagogik vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan va muddatlari aniq ko'rsatilgan tadbirlar rejasi, tadbirlarni amalga oshirishga mas'ul ijrochilar, sinov dasturini amaliyotga tatbiq etishning moliyaviy ko'rsatkichlari;

5) o'rganilayotgan muammoning nazariya va amaliyotdagi dastlabki holati, natijalar olinadigan amaliy bosqich, olingan natijalarning maqsad, ilmiy faraz va pedagogik vazifalar bilan muvofiqligi, natijalarini rasmiylashtirish va tavsiflash;

6) natijalar asosida ilmiy-metodik tavsiyalarining ishlab chiqilishi;

7) tajriba ishlariga rahbarlik qiluvchi shaxs va sinov ishlarini o'tkazishga mas'ul pedagoglar haqida ma'lumot (ularning jinsi, yoshi, pedagogik ish staji hamda mazkur muassasada faoliyat olib borayotgan yillar, toifasi, pedagogik mahorati darajasi, mavjud bo'lsa ilmiy, ilmiy-metodik ishlari va metodik ishlanmalarining soni va boshqalar);

8) tajriba jarayoninig umumiy mohiyatini yorituvchi hujjatlarning yuritilishi, ularning tahlili, maqsadga erishilganlikni baholovchi ekspert xulosasi.

Tajribani tashkil etishda pedagogik vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan va muddatlari aniq ko'rsatilgan tadbirlar rejasini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bu o'rinda quyidagi sxemadan foydalanish mumkin

1-jadval

Tajribani tashkil etishga oid tadbirlar rejasi

№	Tadbirlar	Hali etiluvchi vazifalar	Muddat	Mas'ul shaxslar	Moliyaviy xarajatlar hajmi
1.					
2.					

Mavjud manbalarni o'rganish pedagogik tajribalarning samaradorligini aniqlash maqsadida ekspertizani tashkil etish maqsadga muvofiqligini ko'rsatmoqda. Ekspertiza o'tkazishda quyidagi tamoyillar ustuvor o'rin tutadi:

- ekspert hay'ati a'zolari (mutaxassislar, tadqiqotchilar) soni;
- ko'zlangan natija, muddat va sarf-harajatlarning maqsadga muvofiqligi;
- tajriba mavzusi, maqsadi, predmeti va vazifalariga mos keluvchi nazorat metodlarining belgilanishi;
- tajriba natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarni bayon etuvchi va tajriba dasturi samaradorligini ta'minlashga oid takliflarni asoslovchi taqriz;
- tajriba ishlari bo'yicha ekspert baholash mezonlari.

Ekspert baholash (yoki ekspertiza) umumiy o'rta ta'lim maktablari yoki shahar (tuman) Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlarining ekspert kengashlari tomonidan tashkil etiladi. Tajribaning boshlanishi va yakunlanishi ham ana shu ekspert kengashining qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

Tomonlar o'rtasida shartnomalarning tuzilishi tajribaning boshlanishini, tajriba natijalarining umumlashtirilishi, moliyaviy sarf-xarajatlarni hisob-kitob va tahlil qilinishi esa tajribaning yakunlanganligini ko'rsatadi. Tajriba ekspert hay'atining raisi yoki ushbu kengash ishlaydigan muassasa boshqarish organi rahbarining imzosi va ta'lim muassasasining muhri bilan tasdiqlangan hujjatning tuzilishi bilan boshlanadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyatini loyihalashda tadbirkorlik faoliyatini aks ettiruvchi biznes-rejaning ishlab chiqilishi ham muhim ahamiyatga ega. Biznes-reja tadbirkorlik faoliyatining loyihasi sifatida texnik-iqtisodiy asoslar va ularning amalga oshirilish jarayonini ifoda etadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tashkil etiluvchi tadbirkorlik faoliyatining ko'rinishlari quyidagilar sanaladi:

- fanlar asoslarini o'quv rejasida ko'rsatilgan soatlar hajmidan tashqari vaqtlarda o'rganish;
- repititorlik ta'limi;
- turli to'garaklar (musiqqa, badiiy ijodiyot va sport to'garaklari);
- o'quvchilarni jahon xalqlari hayoti va madaniyatiga oid bilimlar, shuningdek, muayyan yo'nalishlar bo'yicha tashkil etiluvchi fakultativlar;
- o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish (diskoteka va klublar faoliyatini yo'lga qo'yish, sayohatlar uyushtirish);
- ta'lim muassasasining binolari yoki asbob-uskunalarini ijaraga berish;
- pedagoglarning ilmiy-metodik va ijodiy ishlari, metodik ishlanmalari.

Maqsadning yetarli darajada aniq va ravshan ifodalanishi biznes-reja yagona maqsadga yo'naltirilgan hamda muammoning moliyaviy-iqtisodiy jihatlarini aks ettiruvchi hujjat sanaladi.

Biznes-rejaning tarkibiy tuzilmasi va mazmuniga nisbatan aniq tartib joriy etilmagan bo'lsa-da, biroq, unda ma'lum asoslarning mavjud bo'lishi talab etiladi. Ya'ni:

- 1) tadbirkorlik shartnomasning maqsad (daromad olish, ta'lim sohasida yuqori samaradorlikka erishish) va vazifalari;
- 2) biznes-rejaning umumlashgan rezyumesi (xulosasi), asosiy parametrlari, ko'rsatkichlari;
- 3) Subyektlar tomonidan iste'molchilarga taqdim qilingan ta'lim xizmatlarining tavsifi;
- 4) mavjud talab-ehtiyoj va bajarilgan xizmatlaridan tushumlarning hajm tahlili;
- 5) amaliy harakat va tashkiliy chora-tadbirlar rejasi;
- 6) shartnomaning zahira ta'minoti;
- 7) shartnomaning samaradorligi.

Biznes-reja asosida tuzilgan shartnoma tomonlarning qiziqish va ehtiyojlarini qondirish borasidagi vazifalarni hal etishga xizmat qilishi kerak. Xususan, o'quvchilar, ularning ota-onalari hamda o'qituvchilarning ta'lim jarayonini sifatli tashkil etishga bo'lgan talablarini qondirishi, ta'limiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni yengishi, sog'lom raqobatga asoslangan psixologik muhitni shakllantirishi, yangi ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni yarata olishi, moddiy-texnik va ijtimoiy asosni yanada rivojlantirishi, rasmiy aloqalarni kengaytirishi, ta'lim muassasasining maqomini

ko'tarishi, ta'lim sohadagi aloqalarni mustahkamlashi, o'quvchilarning chet ellarda ta'lim olishlari, shuningdek, o'qituvchilarning rivojlangan xorijiy mamlakatlarda kasbiy malakalarini oshirishlari uchun sharoitlarning yaratilishi kabilar ana shunday vazifalar sirasiga kiradi.

Biznes-reja asosiy g'oyalar va tadbirkorlik faoliyati mazmunini kichik hajmda aks ettiradi, shu sababli unda fikrlar ixcham, aniq, ravshan va asosli tarzda ifodalanishi kerak.

Biznes-rejada rezyumening berilishi alohida ahamiyatga ega. Zero, unda belgilangan maqsad va vazifalarni hal etishda:

- layoqatli shaxslar to'g'risida ma'lumotlar;
- ishlab chiqarish va sotish jarayoni;
- tushumlar miqdori;
- moddiy mablag'larning manbai;
- daromad;
- rentabellik;
- sotiladigan tovarlar va xizmatlar;
- ularning farqli xususiyatlari;
- iste'molchi (o'quvchilar va ota-onalar)ning talablariga moslashganlik;
- sarf qilingan mablag'larni qoplay olish shartlari;
- xavfsizlik qoidalari;
- kutilayotgan natijani qo'lga kiritish kafolati aks ettiriladi.

Tadbirkorlik faoliyatining turi, jumladan, tayyorlanadigan va sotiladigan mahsulot namunasi mavjud bo'lishi yoki unga beriladigan tavsif ham muhim ahamiyatga ega. Original namuna mavjud bo'lmasa, u holda biznes-rejada modellar, rasmlar yoki belgilar yordamida tovarning to'liq obrazini aks ettiruvchi tavsif ifodalanishi shart. Pullik ta'lim xizmatining obrazi ham tavsif asosida yoritiladi.

Biznes-rejada ta'limiy xizmatlarning ko'rsatilishiga sarflangan xarajatni qoplash manbai to'g'risida batafsil ma'lumot berilishi maqsadga muvofiq sanaladi. Ta'limiy xizmatning tashkil etilishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni hisobga olgan holda biznes-rejada turli muddatlar (yarim yil, bir yil, yaqin besh yil va undan ortiq) vaqt oralig'ida mavjud ehtiyojning o'zgarish dinamikasi haqidagi ma'lumotlar ham yoritilsa, bajaruvchi sifatida ta'lim muassasasi tomonidan ko'riladigan zararining oldi olinadi.

Harakat dasturida:

- marketing jarayoni (reklama, xizmat bozorini o'rganish, o'quvchilar yoki ota-onalarning ta'lim muassasalari bilan aloqalari, ularning talablari);
- ta'limiy xizmatni tashkil etish, xizmatning tashkil etilishi uchun talab etiladigan moddiy omillar (joy, binolar, o'quv xonalari, ularning jihozlanishi, ta'lim vositalari va o'quv qurollari kabilar) batafsil yoritiladi.

Biznes-rejani amalga oshirishning tashkiliy-texnologik asoslari, shu jumladan, qo'llanilajak samarali shakl, metod va vositalar ham harakatlar dasturida aniq ifodalanishi lozim. Tashkiliy-texnologik asoslar sirasiga mehnatga haq to'lash shakllari, pedagoglar faoliyatini rag'batlantirish, ularning faoliyatini nazorat qilish, buyurtmchilar bilan shartnoma tuzish va uni bekor qilish tartibi kabi chora-tadbirlar kiradi.

Rejaning maxsus bo'limida ta'limiy xizmatning zahiraviy ta'minoti, xususan, xizmat turlari, ularning hajmi va manbalari haqidagi ma'lumotlar yoritiladi. Zahiraviy ta'minot moddiy (o'quv vositalari, elektr energiya, binolar, xonalar, aloqa vositalari), mehnat (barcha xodimlar), moliyaviy (joriy pul mablag'lari, kreditlar, to'lovlar) va axborot resurslari (ilmiy-texnik va statistik ma'lumotlar)ni o'z ichiga oladi.

Biznes-rejaning yakunlovchi bo'limida ta'limiy xizmatni tashkil etish borasidagi shartnomaning samaradorligini ifodalovchi tavsif beriladi. Mazkur tavsif ta'limiy xizmatning daromadi va rentabelligi kabi ko'rsatkichlarga asoslanishi zarur.

Bundan tashqari, ijtimoiy ta'limiy ehtiyojlarni qondirish, shuningdek, texnika hamda texnologiyani rivojlantirishga ko'mak beruvchi yangi ilmiy g'oyalar shaklida ta'limiy xizmatning ijtimoiy va ilmiy-texnik samaradorligiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Rejaning alohida bo'limida ta'limiy xizmat ko'rsatishda talabning pasayishi, taklif ko'lamining ortishi (raqobatchilar sonining ko'payishi) yoki zararlarning salbiy oqibatlarini doimiy ravishda tahlil qilib borish maqsadga muvofiqdir.

Qisqa qilib aytganda biznes-reja aniq maqsadga erishishni ta'minlovchi ta'limiy xizmatning samarali (kutilgandek) tashkil etilishini kafolatlay olishi kerak.

Tajriba-sinov ishlarini olib borish davrida umumiy o'rta ta'lim muassasalarining rahbarlari, shuningdek, o'qituvchilar o'rtasida amaliy trening mashg'ulotlari tashkil etilib, ushbu seminarlarda umumiy o'rta ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyatini yorituvchi omillardan biri – biznes-rejani ishlab chiqish ko'nikma va malakalari shakllantirildi.

Demak, ta'lim muassasasi innovatsion faoliyatini boshqarishda loyihalash mazkur jarayonning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababli ta'lim muassasalarining rahbarlarida innovatsion faoliyat va uning doirasida tadbirkorlik faoliyatini tashkil eta olish layoqatlariga ega bo'lishlari maqsadga muvofiqdir. Ta'lim muassasasida innovatsion faoliyatni jadal va samarali tashkil etilishi rahbarlarning tashkilotchiligi, tashabbuskorligi va ta'limiy xizmatlarni tashkil etishga oid biznes-rejalarni ishlab chiqish borasidagi qobiliyatiga ham bog'liq. Rahbarlarda yuqoridagi kabi xislatlarning aks etishiga erishish tajriba-sinov ishlarining tarkibiy asoslaridan biri bo'lishi lozim. Ishning navbatdagi o'rinlarida shu haqida so'z yuritiladi.

Xulosa. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini innovatsion boshqarishni loyihalash — bu ta'lim tizimida zamonaviy yondashuvlar, ilg'or texnologiyalar va boshqaruv mexanizmlarini joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan jarayondir. Innovatsion boshqaruv modeli rahbar, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlikni kuchaytiradi, ijodkorlik va tashabbusni qo'llab-quvvatlaydi hamda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi.

Bunday boshqaruvni loyihalashda strategik rejalashtirish, raqamlashtirish, pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etish va o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ta'lim muassasalarida innovatsion muhitni yaratish orqali o'quvchilarni raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan va ijodkor shaxs sifatida tarbiyalashga erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, umumiy o'rta ta'lim muassasalarini innovatsion boshqarishni loyihalash – bu nafaqat boshqaruv samaradorligini oshirish, balki milliy ta'lim tizimini jahon standartlariga mos ravishda rivojlantirishning eng muhim omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To'raqulov A. Omonqulova Z. "TA'LIMDA STEAM YONDASHUV"// international journal of recently scientific researcher's theory.
2. Xolmurotov Sh. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida samarali boshqarishni tashkil etish yo'llari.(o'quv qo'llanma). Jizzax. «Poytaxt exclusive».2024.-B.252
3. Днепровская Н.В.Янковская Е.А,Шевцова И.В.Понятные основы концепции смарт-образования//Открытое образования.. 2015. № 6. S. 43–51.
4. Karabayeva Z "Pedagogika".T.: "Moliya".2007.-B 155
5. G'aybullayev Sh.M. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini innovatsion boshqarish mexanizmlari / «Maktabgacha ta'lim klasterlarini tashkil etish ning zamonaviy tendensiyalari: xorij tajribasi» xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari 2023
6. G'aybullayev Sh.M. Maktabni innovatsion boshqarish tizimi. "Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnal №1(18) 2025